Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 373.3:37.015.3:159.922.7
ORCID: 0009-0000-1552-1587

JUMAYEVA MAXBUBA O'KTAM QIZI
Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti
E-mail: maxbuba@terdpi.uz

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA O'QUV-BILISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA NEYROPEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish jarayonida neyropedagogik usullardan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Unda bola miyasining yoshga xos rivojlanish xususiyatlari, diqqat, xotira, idrok, tafakkur, emotsional holat va motivatsiya kabi kognitiv jarayonlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quv jarayonida ko'rish, eshitish, harakat, nutq va emotsional faollikni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilimni qabul qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada neyropedagogik yondashuvning an'anaviy ta'lim usullaridan farqli jihatlari, xususan, individual yondashuv, faol o'rganish, multisensor ta'lim, o'yinli mashqlar, emotsional qo'llab-quvvatlash va mustaqil fikrlashni rag'batlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Tahlillar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini samarali shakllantirishda neyropedagogik usullar ta'lim jarayonini bolaning tabiiy rivojlanish mexanizmlariga moslashtirishini va o'qitish natijadorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

KALIT SO'ZLAR: *neyropedagogika, o'quv-bilish faoliyati, kichik maktab yoshi, kognitiv rivojlanish, diqqat, xotira, idrok, multisensor ta'lim, motivatsiya, ta'lim samaradorligi.*

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

АННОТАЦИЯ: В данной статье раскрывается научно-теоретическое и практическое значение использования нейропедагогических методов в процессе формирования учебно-познавательной деятельности у учащихся младшего школьного возраста. Рассматриваются возрастные особенности развития мозга ребёнка, а также влияние таких когнитивных процессов, как внимание, память, восприятие, мышление, эмоциональное состояние и мотивация, на эффективность обучения. Особое внимание уделяется возможностям организации образовательного процесса на основе сочетания зрительного, слухового, двигательного, речевого и эмоционального компонентов, способствующих более осознанному восприятию, переработке и применению учебной информации. В статье обосновываются отличительные особенности нейропедагогического подхода по сравнению с традиционными методами обучения, в частности его значение в реализации индивидуального подхода, активного обучения, мультисенсорного восприятия, игровых упражнений, эмоциональной поддержки и развития самостоятельного мышления. Проведённый анализ показывает, что применение нейропедагогических методов в начальном образовании позволяет адаптировать учебный процесс к естественным механизмам развития ребёнка и повысить результативность формирования учебно-познавательной деятельности.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *нейропедагогика, учебно-познавательная деятельность, младший школьный возраст, когнитивное развитие, внимание, память, восприятие, мультисенсорное обучение, мотивация, эффективность образования.*

THE IMPORTANCE OF USING NEUROPEDAGOGICAL METHODS IN THE FORMATION OF EDUCATIONAL AND COGNITIVE ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

ABSTRACT. This article explores the theoretical and practical significance of using neuropedagogical methods in the formation of educational and cognitive activity among primary school students. It examines the age-specific characteristics of children's brain development and analyzes the influence of cognitive processes such as attention, memory, perception, thinking, emotional state, and motivation on learning effectiveness. Particular attention is given to the organization of the educational process through the integration of visual, auditory, motor, speech-based, and emotional activities, which support learners in receiving, processing, retaining, and applying educational information more effectively. The article also highlights the distinctive features of the neuropedagogical approach in comparison with traditional teaching methods, especially its role in individualized instruction, active learning, multisensory teaching, game-based activities, emotional support, and the development of independent thinking. The analysis shows that the application of neuropedagogical methods in primary education helps adapt the learning process to the natural developmental mechanisms of children and contributes to improving the effectiveness of educational and cognitive activity formation.

KEY WORDS: *neuropedagogy, educational and cognitive activity, primary school age, cognitive development, attention, memory, perception, multisensory learning, motivation, educational effectiveness.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Zamonaviy globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan va zamonaviy bilimlarni egallagan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan kichik maktab yoshida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, o'quv-bilish faoliyati va intellektual salohiyati shakllanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalarning diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlari faol rivojlanadi. Shu sababli o'qitish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish va ularga mos metodlarni qo'llash zarur hisoblanadi.

So'nggi yillarda fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishinatijasidata'limjarayonigayangiyondashuvlar kirib kelmoqda. Shunday innovatsion yo'nalishlardan biri – neyropedagogika hisoblanadi. Neyropedagogika inson miyasining ishlash mexanizmlarini o'rganishga asoslanib, ta'lim jarayonini shu bilimlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularning o'rganish uslublarini hisobga olish va samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Neyropedagogik yondashuvning asosiy g'oyasi – o'qitish jarayonini inson miyasining tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga moslashtirishdan iborat. Bu esa o'quvchilarning bilimlarni oson, tez va samarali o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarda miya plastiklik darajasi yuqori bo'lib, bu davr ta'limiy ta'sirlar uchun eng qulay davr hisoblanadi. Shu bois, neyropedagogik usullarni aynan boshlang'ich ta'limda qo'llash yuqori natijalarni ta'minlaydi.

Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari ko'plab hollarda o'quvchilarning individual xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatida passivlik, diqqatning sustligi va bilimlarni yuzaki o'zlashtirish holatlari kuzatiladi. Neyropedagogik yondashuv esa ushbu muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Shunday qilib, neyropedagogik yondashuvni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini samarali shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur muammo bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quv-bilish faoliyati tushunchasi psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan faol, ongli va maqsadli harakati sifatida talqin etiladi. Ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchilarning bilish jarayonlari – diqqat, xotira, tafakkur va nutqning rivojlanishi o'quv faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Mahalliy olimlardan E.G'.G'oziev o'z tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, bu davrda bilish jarayonlarining jadal rivojlanishini asoslab bergan. Uning fikricha, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim omil hisoblanadi.

O'.Tolipov va M.Usmonboyeva tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar nazariyasida o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Ular o'qitishda innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida neyropedagogika yo'nalishi alohida e'tiborga loyiqdir. M.H.Immordino-Yang o'z ilmiy ishlarida emotsiyalar va o'rganish jarayoni o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib, o'quvchilarning hissiy holati ularning bilimlarni o'zlashtirishiga kuchli ta'sir qilishini asoslab bergan.

Shuningdek, D.A.Sousa "How the Brain Learns" asarida inson miyasining o'rganish jarayonidagi faoliyatini tahlil qilib, ta'limni miya faoliyati qonuniyatlariga mos ravishda tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, axborotni qismlarga bo'lib berish va takrorlash orqali bilimlarni mustahkamlash samarali natija beradi. E.Jensen esa "Brain-Based Learning" konsepsiyasida o'qitish jarayonida multisensor yondashuv, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi organlari orqali axborotni qabul qilish o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam berishini ilmiy asoslab bergan.

Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlarda neyropedagogikaning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: individual yondashuv, emotsional muhit yaratish, faol o'qitish usullaridan foydalanish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish. Ushbu tamoyillar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning umumiy

pedagogik va psixologik asoslari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, aynan neyropedagogik yondashuv asosida bu jarayonni tashkil etish masalasi hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu yo'nalishda mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik yondashuvning ahamiyati shundaki, u ta'lim jarayonini bolaning tabiiy rivojlanish xususiyatlariga moslashtiradi. Bu yosh davrida o'quvchilarning bilish jarayonlari - diqqat, idrok, xotira, tafakkur va tasavvur faol rivojlanish bosqichida bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda beriladigan bilimlar o'quvchining yoshiga, qiziqishiga, emotsional holatiga va axborotni qabul qilish xususiyatlariga mos tarzda tashkil etilishi zarur.

An'anaviy yondashuvda o'quvchi ko'pincha tayyor bilimni tinglovchi va takrorlovchi sifatida ishtirok etadi. Bunday holatda o'quvchining bilish faolligi cheklanishi, mavzuga bo'lgan qiziqishi pasayishi yoki o'zlashtirish jarayoni yuzaki kechishi mumkin. Neyropedagogik yondashuvda esa o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni anglovchi, taqqoslovchi, izohlovchi, amaliy faoliyatda qo'llovchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa o'quv-bilish faoliyatining ichki faollik, qiziqish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv asosida shakllanishiga xizmat qiladi.

Neyropedagogik yondashuvning muhim jihatlaridan biri dars jarayonida turli sezgi kanallarini faollashtirishdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar axborotni faqat eshitish orqali emas, balki ko'rish, harakat qilish, kuzatish, predmetlar bilan ishlash va o'yinli topshiriqlar orqali samaraliroq o'zlashtiradi. Shu sababli darsda rasm, jadval, sxema, rangli kartochka, audio material, harakatli topshiriq va amaliy mashqlardan foydalanish o'quv materialining tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, murakkab tushunchalarni obrazli va ko'rgazmali shaklda berish o'quvchilarning mavzuni tezroq anglashiga yordam beradi.

Multisensor yondashuv o'quvchilarning xotira jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumot bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi kanali orqali qabul qilinganda, u ongda mustahkamroq saqlanadi. Masalan, o'quvchi mavzuni eshitadi, ko'radi, tasvirlaydi, amaliy bajaradi va izohlaydi. Bunday jarayon bilimning mexanik yodlash orqali emas, balki ongli tushunish asosida shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada o'quvchi o'rgangan ma'lumotini keyingi darslarda, mustaqil topshiriqlarda va hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Neyropedagogik usullar o'quvchilarning diqqatini jamlash va uni ma'lum vaqt davomida saqlab turishda ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatning barqarorligi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli dars davomida bir xil faoliyat turi uzoq davom ettirilsa, o'quvchilarda charchash, zerikish va mavzudan chetlashish holatlari kuzatiladi. Dars jarayonida qisqa diqqat mashqlari, faol tanaffuslar, harakatli topshiriqlar va savol-javob usullaridan foydalanish esa o'quvchilarning diqqatini qayta tiklashga yordam beradi. Bu usullar darsning umumiy ritmini jonlantiradi va o'quvchilarning mavzuga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi.

O'yin texnologiyalari ham neyropedagogik yondashuvning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'yin faqat ko'ngilochar faoliyat emas, balki bilish, muloqot qilish, fikrlash va o'zini namoyon etish vositasidir. Didaktik o'yinlar, rolli mashqlar, topishmoqlar, tezkor savollar, mantiqiy topshiriqlar va juftlikda ishlash usullari o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladi. O'yin orqali tashkil etilgan ta'limda o'quvchi xatodan cho'chimaydi, o'z fikrini erkin ifodalaydi va topshiriqni bajarishga ichki ehtiyoj sezadi.

Emotsional qo'llab-quvvatlash ham o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda muhim omildir. O'quvchi o'zini xavfsiz, qadrlangan va qo'llab-quvvatlangan muhitda his qilganda, unda darsga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. O'qituvchining rag'batlantiruvchi so'zlari, xatoni keskin tanqid qilmasdan tushuntirishi, o'quvchining kichik yutug'ini ham e'tirof etishi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bunday muhitda o'quvchi bilim olish jarayonida faolroq ishtirok etadi, savol berishdan va mustaqil fikr bildirishdan tortinmaydi.

Neyropedagogik yondashuv mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, muammoni yechish va xulosa chiqarishga o'rgatish zarur. Bu jarayonda oddiy hayotiy vaziyatlar, rasmli topshiriqlar, ketma-ketlikni aniqlash, ortiqcha predmetni topish, "nima uchun?" va "qanday qilib?" kabi savollar o'quvchilarning tafakkur faolligini oshiradi. Neyropedagogik yondashuv bu topshiriqlarni bolaning qiziqishi va idrok qilish darajasiga moslashtirish imkonini beradi.

Mazkur yondashuv o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham ahamiyatlidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha topshiriqni bajarishda o'qituvchi ko'magiga tayanadi. Shu sababli mustaqil ishlashga o'rgatish bosqichma-bosqich olib borilishi lozim. Neyropedagogik yondashuvda topshiriqlar oddiydan murakkabga, ko'rgazmalidan mustaqil tahlilga, jamoaviy faoliyatdan individual faoliyatga o'tish asosida tashkil etiladi. Bu esa

o‘quvchilarda o‘z faoliyatini rejalashtirish, topshiriqni tushunish, bajarish va natijani baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, neyropedagogik yondashuv ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchining axborotni qabul qilish tezligi, xotira imkoniyati, diqqat darajasi, emotsional holati va qiziqishlari turlicha bo‘ladi. Ayrim o‘quvchilar ko‘rgazmali materiallar orqali tezroq o‘zlashtirsa, boshqalari eshitish, amaliy harakat yoki muloqot orqali samaraliroq o‘rganadi. Shu bois dars jarayonida bir xil metoddan foydalanish barcha o‘quvchilar uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Neyropedagogik yondashuv esa o‘qituvchiga turli metodlarni uyg‘unlashtirish va har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olish imkonini beradi.

Biroq neyropedagogik usullarni qo‘llashda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Har qanday o‘yin, ko‘rgazmali vosita yoki interfaol mashq o‘z-o‘zidan samarali natija bermaydi. Ular dars maqsadi, mavzu mazmuni, o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va bilish imkoniyatlariga mos tanlangandagina pedagogik natija beradi. Aks holda, dars jarayoni tashqi tomondan qiziqarli ko‘rinsa-da, o‘quv-bilish maqsadiga yetarli darajada xizmat qilmasligi mumkin.

Shuning uchun neyropedagogik yondashuvni qo‘llashda tizimlilik, maqsadlilik va metodik izchillik asosiy shartlardan hisoblanadi. O‘qituvchi har bir metodni nima maqsadda qo‘llayotganini, u o‘quvchining qaysi bilish jarayonini faollashtirishini va dars natijasiga qanday ta’sir ko‘rsatishini oldindan belgilashi lozim. Masalan, vizual material mavzuni tushuntirishga, o‘yin elementi qiziqishni oshirishga, diqqat mashqi charchoqni kamaytirishga, savol-javob esa fikrlashni faollashtirishga xizmat qilishi kerak.

Umuman olganda, neyropedagogik yondashuv kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirishda samarali metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta’lim jarayonini bolaning tabiiy rivojlanishi, idrok qilish xususiyatlari, emotsional ehtiyojlari va individual imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada o‘quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi, bilimlarni ongli o‘zlashtiradi, mustaqil fikrlashga intiladi va o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘ladi.

XULOSA. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Multisensor yondashuv, o‘yin texnologiyalari, vizual materiallar, qisqa diqqat mashqlari va emotsional qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur, motivatsiya va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Neyropedagogik yondashuv ta’lim jarayonini o‘quvchilarning yosh, individual va psixofiziologik xususiyatlariga mos tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, darsga qiziqishi, mustaqil fikrlashi va bilish faolligining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars jarayonida neyropedagogik usullardan foydalanishda ko‘rgazmalilik, interfaollik, emotsional qo‘llab-quvvatlash va faoliyat turlarini almashlab borishga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Mazkur yondashuvdan maqsadli va tizimli foydalanish kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini samarali shakllantirishda muhim ilmiy-metodik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Immordino-Yang M.H. Emotions, Learning and the Brain. – New York: W.W.Norton & Company, 2016.
2.Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
3.Jensen E. Brain-Based Learning: The New Paradigm of Teaching. – California: Corwin Press, 2008.
4.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000.
5.Qudratov T.R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
6.Sousa D.A. How the Brain Learns (5th ed.). – Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2017.
7.Tokuhama-Espinosa T. Mind, Brain, and Education Science. – New York: W.W. Norton & Company, 2011.
8.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.
9.Wolfe P. Brain Matters: Translating Research into Classroom Practice. – Alexandria: ASCD, 2010.
10.Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
11.Zull J.E. The Art of Changing the Brain. – Virginia: Stylus Publishing, 2002.